Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 34

MA’MURIY ORGANLAR QARORLARI USTIDAN SUD NAZORATI: NAZARIYA, MILLIY VA XALQARO AMALIYOT TAHLILI

Muvazzam Baxtiyorovna Tillaboyeva*
Farg’ona davlat unversiteti, Huquqshunoslik fakulteti Maxsus huquqiy fanlar kafedrasi yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
✉ muazzamtillaboyeva2@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ma’muriy organlar qarorlari ustidan sud nazoratini amalga oshirishning protsessual asoslari tahlil qilingan. MSIYUTK normalari, Germaniya va Fransiya tajribasi asosida isbotlash majburiyati, sudning faol ishtiroki hamda preventiv himoya mexanizmlari o‘rganilgan. Sud qarorlari ijrosini ta’minlash va protsessual muvozanatni tiklashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar

Sud nazorati, ma’muriy adliya, ommaviy munosabatlar, isbotlash majburiyati, faol ishtirok, dastlabki himoya, shaxsiy sanksiya, qonun ustuvorligi, protsessual kafolat, huquqiy muvozanat.

DOI: 10.5281/zenodo.23281702

KIRISH

Demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining fundamental ustunlaridan biri – davlat organlari faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxs huquqlarining daxlsizligini ta’minlash hisoblanadi. Zamonaviy ommaviy huquq tizimida ma’muriy organlarning ijro etish va buyruq berish vakolatlari kengayib borayotgan bir sharoitda, jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini davlat hokimiyatining ixtiyoriy choralari hamda suiste’molliklaridan himoya qilish zarurati tug‘iladi. Bu borada ma’muriy organlar qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi ustidan o‘rnatiladigan sud nazorati tizimi hokimiyatlar bo‘linishi va ularning o‘zaro muvozanati prinsipining real amaliyotdagi bosh kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi qabul qilinishi bilan milliy huquqiy tizimda ma’muriy adliya to‘laqonli mustaqil tarmoq va institut sifatida shakllandi. Mazkur Kodeksning 2-moddasida ma’muriy sud ishlarini yuritishning tub vazifalari qat’iy belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, sud nazoratining bosh maqsadi – ma’muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini hamda fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashdan iboratdir. Qonun chiqaruvchi ushbu normada sudning rolini faqatgina yuzaga kelgan nizolarni ko‘rib chiquvchi oddiy mexanizm sifatida emas, balki ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamiyatda qonunga va sudga nisbatan hurmat munosabatini shakllantiruvchi strategik institut sifatida muhrlab qo‘ydi.

Shunga ko‘ra, ma’muriy organlar qarorlari ustidan sud nazoratini amalga oshirishning protsessual jihatlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan, xususan, ilg‘or xalqaro pretsedentlar prizmasida tadqiq etish bugungi kun yuridik fanining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ma’muriy organlar qarorlari ustidan sud nazoratini real voqeorlikka aylantirish bevosita sud hokimiyatining ommaviy-huquqiy munosabatlarga aralashish chegaralari hamda subyektlarning sudga erishish dara-

jasi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi 3-moddasida ushbu protsessual qonunchilikning amal qilish sohasi qat’iy chizib berilgan. Unga ko‘ra, ma’muriy sud ishlarini yuritish tartibi fuqarolar va yuridik shaxslarning nafaqat buzilgan, balki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga nisbatan tatbiq etiladi. Bu yerda qonun chiqaruvchi ”nizolashilayotgan huquq” tushunchasini kiritish orqali sud nazoratining preventiv (oldini oluvchi) va kengaytirilgan tabiatini namoyon etadi. Ya’ni, huquqning amalda buzilib ulgurganligi majburiy shart qilib qo‘yilmaydi, balki ma’muriy organning harakati yoki hujjati tufayli subyektiv huquqqa tahdid solinayotgan yoki tushunmovchilik yuzaga kelgan bosqichda ham sud nazoratini ishga tushirish imkoniyati yaratiladi.

Ma’muriy adliya tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning ma’muriy organlar bilan munosabatlardagi tabiiy tengsizligini (chunki davlat organi hokimiyat vakolatiga ega, fuqaro esa yo‘q) kompensatsiya qilish, ya’ni muvozanatga keltirish Kodeksning 4-moddasida mustahkamlangan sudga murojaat qilish huquqi orqali kafolatlanadi. Mazkur normaning eng fundamental jihati – *”har qanday manfaatdor shaxs”* tushunchasining ishlatilishidir. Bu tushuncha ma’muriy-huquqiy nizolarda da’vo huquqiga ega bo‘lgan subyektlar doirasini keng talqin qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, 4-moddaning uchinchi qismida mustahkamlangan *”Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas”* degan imperativ qoida dispozitivlik prinsipining ma’muriy protsessdagi o‘ziga xos cheklanishini ko‘rsatadi. Fuqarolik protsessidan farqli olaroq, ommaviy huquqda fuqaro davlat organining bosimi, ma’muriy shartnomalar yoki o‘zaro kelishuvlar sharti bilan sud nazoratidan voz kechish majburiyatini ololmaydi. Bu norma davlat o‘z fuqarosini ma’muriy apparatning yashirin tazyiqlaridan himoya qiladigan eng kuchli protsessual filtr hisoblanadi. Shuningdek, ushbu modda ommaviy manfaatlarni himoya qilish yuklamasini prokuror hamda vakolatli davlat organlari zimmasiga ham yuklaydi, bu esa sud nazoratining subyektivlik doirasidan chiqib, umumdavlat miqyosidagi qonuniylikni ta’minlash funksiyasiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Sud nazoratini harakatga keltiruvchi protsessual shakllar Kodeksning 5-moddasida institutsionallashtirilgan. Ma’muriy sudda birinchi instansiyada ish qo‘zg‘atishning ariza va shikoyat shaklida, yuqori instansiyalarda esa shikoyat va protest shaklida amalga oshirilishi sud nazoratining bosqichma-bosqichlik (instansiyaviylik) tizimini ta’minlaydi. Arizaning shakli va mazmuniga qo‘yiladigan talablar fuqarolik da’vosiga o‘xshash bo‘lsa-da, uning zamirida ma’muriy hujjatning qonunga zidligini asoslash yuklamasi yotadi.

Ushbu jarayonning moddiy va faktik asosi Kodeksning 6-moddasida belgilangan ”Ma’muriy ish” tushunchasi orqali shakllanadi. Ma’muriy ishning taraflar taqdim etgan hujjatlar bilan bir qatorda *”sud tomonidan talab qilib olingan hujjatlar”* asosida shakllanishi to‘g‘risidagi qoida ma’muriy protsessning eng muhim prinsipi – sudning faol roli (inkvizitsionlik) prinsipini amalda ta’minlaydi. Oddiy fuqarolik ishlarida sud neytral kuzatuvchi va taraflar taqdim etgan dalillarni baholovchi subyekt bo‘lsa, ma’muriy ishda sud passiv maqomdan chiqadi. Ma’muriy organlar o‘zlariga qarshi bo‘lgan dalillar va ichki hujjatlarni yashirishga moyil bo‘lishini inobatga olib, qonun sudga dalillarni o‘z tashabbusi bilan, taraflarning iltimosnomasisiz ham talab qilib olish majburiyatini yuklaydi. Binobarin, ma’muriy ish fakti faqatgina rasmiy hujjatlar yig‘indisi emas, balki sudning ob’yektiv haqiqatni aniqlashga qaratilgan protsessual faoliyati mahsulidir.

Ma’muriy organlar qarorlari ustidan sud nazoratini real voqeorlikka aylantirishda MSIYUTKning 11-moddasida mustahkamlangan ”Sudning faol ishtiroki” prinsipi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu norma an’anaviy fuqarolik protsessidagi taraflarning mutlaq tortishuvi (dispozitivlik) qoidasidan farq qilib, sudga ommaviy-huquqiy nizolarda mustaqil va tashabbuskor subyekt sifatida harakat qilish majburiyatini yuklaydi. 11-moddaning ikkinchi qismiga muvofiq, sud taraflarning tushuntirishlari yoki taqdim etgan dalillari bilan cheklanib qolmasdan, ishning to‘g‘ri hal qilinishi uchun barcha haqiqiy holatlarni ohar tomonlama, to‘liq va xolisona tekshirishga majburdir. 2023-yilgi qonunchilik islohotlari doirasida ushbu moddaning yangi tahrirda qabul qilinishi sud nazorati doirasini yanada kengaytirdi. Biroq, huquqni qo‘llash amaliyotida ushbu prinsipni hayotga tatbiq etishda jiddiy tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Asosiy muammo shundaki, 11-moddaning to‘rtinchi qismida *“Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishning haqiqiy holatlarini tekshirishda va dalillarni to‘plashda sudga ko‘maklashishi shart”* deb belgilangan bo‘lsa-da, ma’muriy organlar tomonidan ushbu ko‘maklashish majburiyatini bajarmaslik holatlari ko‘p uchraydi. Davlat organlari o‘zlarining noqonuniy qarorlarini yashirish maqsadida ichki idoraviy hujjatlarni sud so‘roviga qara-

may taqdim etishni kechiktiradilar. Sudlar esa amaliyotda ma’muriy organning protsessual mas’uliyatsizligi tufayli ish hujjatlarini o‘zlari qidirib topishga majbur bo‘lmoqdalar, bu esa sud majlislarining asossiz ravishda oylab kechiktirilishiga va fuqaroning tezkor sudlovga bo‘lgan huquqining buzilishiga olib kelmoqda. Binobarin, 11-modda doirasidagi sudning faol ishtiroki vakolatini ma’muriy organlar ustidan qat’iy protsessual ta’sir choralari va majburlash mexanizmlari bilan mustahkamlash zarurati mavjud.

Shu bilan birga, Kodeksning 12-moddasida belgilangan ”Ma’muriy sud ishlari yuritiladigan til” prinsipi ham sud nazoratining ochiqligi va protsessual adolatni ta’minlashning muhim kafolatidir. Ushbu normaga ko‘ra, ma’muriy sud ishlari o‘zbek, qoraqalpoq yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda yuritilishi hamda sud protsessi ishtirokchilarining tarjimon orqali ish materiallari bilan tanishish huquqi kafolatlanadi. Ammo real sud amaliyotida, ayniqsa, xorijiy investorlar yoki milliy tilni yetarli darajada bilmaydigan fuqarolar ishtirokidagi murakkab ma’muriy-huquqiy nizolarda, professional va ixtisoslashgan yuridik tarjimonlarning yetishmasligi muammosi ko‘zga tashlanmoqda. Ma’muriy organlarning ko‘plab maxsus yo‘riqnomalari va qarorlari o‘ziga xos tarmoq terminologiyasiga ega bo‘lganligi sababli, oddiy tarjimonlar tomonidan ularning mazmunini sudda noto‘g‘ri yoki noaniq talqin qilinishi 12-modda normalarining real hayotdagi samaradorligini cheklab qo‘ymoqda.

Ma’muriy organlar qarorlari va harakatlari ustidan sud nazoratining real samaradorligi, birinchi navbatda, sudda isbotlash jarayoni va dalillar tizimining qay darajada adolatli tashkil etilganligiga bog‘liq. MSIYUTKning 65-moddasida dalillar tushunchasining keng qamrovli huquqiy asosi berilgan bo‘lib, u an’anaviy ashyoviy va yozma dalillar bilan bir qatorda zamonaviy raqamli dalillarni ham ommaviy-huquqiy nizolarni hal etish vositasi sifatida mustahkamlaydi. Kodeksning 66-moddasiga muvofiq, isbotlash jarayoni dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashni qamrab oluvchi yaxlit protsessual tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq, ma’muriy sudlovning o‘ziga xos murakkab tabiati va uning fuqarolik protsessidan tubdan farqlanuvchi jihati aynan 67 va 68-moddalarda belgilangan isbotlash majburiyatining taqsimlanishi hamda dalillarni talab qilib olish mexanizmida yuzaga chiqadi.

O‘zbekiston qonunchiligida ma’muriy sud ishlarini yuritish tizimini xalqaro andozalar darajasiga olib chiqish maqsadida kiritilgan eng muhim o‘zgartirishlardan biri — 67-moddaning uchinchi va to‘rtinchi qismlaridir. Mazkur normaning uchinchi qismida nizolashilayotgan qaror yoki harakatning qonuniyligini isbotlash majburiyati to‘liq ma’muriy organ va mansabdor shaxslar zimmasiga yuklatilgan. Qonun chiqaruvchi o‘ta muhim cheklovni joriy etgan: *ma’muriy organlar qaror qabul qilishda va o‘z harakatlarini oqlashda faqat o‘sha qaror chiqarilgan paytda tayangan asoslarinigina keltirishi mumkin.* Bu qoida ma’muriy organlarning sud jarayoni boshlangandan keyin o‘z xatolarini yopish uchun retroaktiv (orqaga qaytish) tarzida yangi faktik yoki huquqiy asoslarni ”o‘ylab topish” yoki hujjatlarni qalbakilashtirish amaliyotiga chek qo‘yadi.

Ushbu jarayondagi eng inqilobiy yangilik — 67-moddaning to‘rtinchi qismida mustahkamlangan *”faktlarni arizachi foydasiga faraz qilish”* (adverse inference) mexanizmidir. Agar ma’muriy organ o‘zida mavjud bo‘lgan dalilni sud belgilagan muddatda taqdim etmasa, ushbu dalildagi ma’lumotlar ma’muriy organning manfaatlariga qarshi qaratilgan deb faraz qilinadi va fuqaroning (arizachining) vajlari tan olingan deb hisoblanadi. Garchi ushbu norma huquqiy jihatdan mukammal ko‘rinsa-da, amaliyotda va sudlarning huquqni qo‘llash interpretatsiyasida (talqinida) tizimli muammolar saqlanib qolmoqda:

67-modda (4-qism) va 68-moddaning o‘zaro ziddiyati (kolliziyasi): Kodeksning 68-moddasi sudga taqdim etilgan dalillar yetarli bo‘lmagan taqdirda, sudning *o‘z tashabbusi bilan* qo‘shimcha dalillarni talab qilib olish majburiyatini (sudning faol roli prinsipini) yuklaydi. Amaliyotda ko‘plab sudyalar ma’muriy organ hujjatlarni taqdim etmagan taqdirda, 67-moddaning 4-qismini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashdan (ya’ni faktni fuqaro foydasiga faraz qilib, ishni tugatishdan) cho‘chishadi. Buning o‘rniga sudyalar 68-moddaga tayanib, ma’muriy organdan hujjatni takroran va takroran talab qilib, ajrimlar chiqarishda davom etadilar. Natijada, ma’muriy organning mas’uliyatsizligi sababli sud majlislari oylab kechiktiriladi, bu esa fuqaroning tezkor va adolatli sudlovga bo‘lgan huquqini buzadi.

Jarima sanksiyalarining samorasizligi, 68-moddaning sakkizinchi va to‘qqizinchi qismlariga ko‘ra, sud talab qilgan dalilni uzrsiz sabablarga ko‘ra taqdim etmagan shaxsga jarima solinishi ko‘zda tutilgan. Ammo ushbu jarima ma’muriy organning mansabdor shaxsiga nisbatan intizomiy yoki shaxsiy moddiy ta’sir kuchi

sifatida deyarli ishlamaydi. Davlat idoralari ko‘p hollarda ushbu jarimalarni tashkilotning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplashga urinishadi. Eng asosiysi, 68-moddada ko‘rsatilganidek, jarima solinishi baribir o‘sha tashkilotni dalilni taqdim etish majburiyatidan ozod qilmaydi. Sud jarayoni esa boshi berk ko‘chaga kirib qoladi: ma’muriy organ hujjatni bermaydi, sud jarima soladi, lekin ish mohiyatan hal bo‘lmasdan osilib qolaveradi.

Shunday qilib, 67 va 68-moddalarning amaldagi sinergiya (o‘zaro moslik) holati tahlili shuni ko‘rsatadiki, isbotlash majburiyatini ma’muriy organ zimmasiga yuklash haqidagi ilg‘or normalar real protsessual harakatlantiruvchi kuchga ega bo‘lishi uchun, ma’muriy organlarning sudni va arizachini mensimaslik holatlariga qarshi qat’iy va imperativ xarakterdagi, faqat ramziy jarimalardan iborat bo‘lmagan oqibatlarni qonunchilik darajasida yanada aniqroq mexanizmlar bilan mustahkamlash zarurati mavjud.

Ma’muriy organlar qarorlari ustidan sud nazoratini amalga oshirishning protsessual modellarini o‘rganish ma’muriy adliya tizimi rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga murojaat qilishni taqozo etadi. Dunyo huquqiy amaliyotida ma’muriy sudlov tizimining rivojlanish trayektoriyasi asosan kontinental Yevropa hamda anglo-sakson tizimlari doirasida namoyon bo‘ladi. Milliy ma’muriy-protsessual qonunchiligimiz o‘zining konseptual poydevoriga ko‘ra kontinental Yevropa, xususan, Germaniya modeliga asoslangani sababli, ushbu davlatlarning sud nazorati mexanizmlarini tahlil qilish alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Germaniya Federativ Respublikasining Ma’muriy sudlov to‘g‘risidagi qonuni hamda Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonuni dunyodagi eng mukammal moddiy va protsessual tizimlardan hisoblanadi. Nemis ma’muriy sudlovining bosh falsafasi subyektiv huquqlarni himoya qilish doktrinasiga tayanadi. Ushbu tizimda Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning 11-moddasiga muqobil bo‘lgan rasmiy surishtiruv prinsipi o‘ta qat’iy shaklda amal qiladi. Mazkur qonun qoidalariga ko‘ra, ma’muriy sud ishdagi barcha faktik holatlarni o‘z tashabbusi bilan aniqlashga majbur bo‘lib, taraflarning ko‘rsatuvlari yoki da’volari bilan cheklanmaydi. Agar ma’muriy organ o‘z qarorining huquqiy va faktik asoslarini tasdiqlovchi ichki hujjatlarni sudga taqdim etishdan bosh tortsa, sud jarayonni cho‘zmasdan, mazkur holatni ma’muriy organning zarariga baholaydi va ishni arizachi foydasiga hal qiladi.

Fransiya Respublikasining ma’muriy adliya tizimi esa o‘zining institutsional tuzilishiga ko‘ra o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lib, bu yerda Davlat Kengashi eng yuqori ma’muriy sud organi hisoblanadi. Fransuz ma’muriy huquqida sud nazoratining samaradorligini ta’minlovchi eng kuchli protsessual instrumentlardan biri astrent institutidir. Agar ma’muriy organ qonuniy kuchga kirgan sud qarorini ijro etishni kechiktirsa yoki undan bo‘yin tovlasa, Davlat Kengashi qarorni ijro etmagan muayyan mansabdor shaxsning shaxsiy ish haqi yoxud mablag‘lari hisobidan har bir kechiktirilgan kun uchun muayyan miqdorda progressiv jarima undirish haqida qaror chiqaradi. Ushbu mexanizm sud qarorlarining majburiyligi prinsipini deklarativlikdan real sanksiyaviy kuchga ega bo‘lgan tizimga aylantirgan.

Shu bilan birga, xalqaro miqyosda ma’muriy sud nazorati standartlarini belgilashda Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi pretsedentlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Inson huquqlari to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasining 6-moddasida mustahkamlangan adolatli sudlov huquqi ma’muriy organlar bilan bog‘liq nizolarga ham to‘liq tatbiq etiladi. Mazkur sud o‘zining ko‘plab qarorlarida ma’muriy organlarning qaror qabul qilish jarayonida eshitilish huquqi va qonuniy ishonch himoyasi prinsiplariga rioya etilishini majburiy protsessual shart qilib qo‘ygan. Agar davlat organi fuqaro bilan munosabatda o‘zining muayyan harakati yoki hujjati orqali unda qonuniy ishonch uyg‘otgan bo‘lsa, keyinchalik o‘z qarorini bekor qilib, fuqaroning huquqiy maqomini yomonlashtirishga haqli emas deb topiladi.

Xalqaro va xorijiy amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, samarali sud nazorati faqatgina qonunda prinsiplarni e’lon qilish bilan emas, balki ma’muriy organlarning protsessual mas’uliyatsizligiga qarshi keskin ва shaxsiylashtirilgan javobgarlik mexanizmlarini joriy etish orqali ta’minlanadi.

Ushbu ilg‘or xorijiy tajribalarni hamda milliy amaliyotda MSIYUTK normalarini qo‘llashda yuzaga kelayotgan tizimli kamchiliklarni inobatga olgan holda, milliy protsessual qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi qat’iy huquqiy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarining majburiyligini ta’minlash va ijro intizomini kuchaytirish maqsadida, fransuz huquqidagi astrent instituti andozalari asosida ma’muriy sud qonunchiligiga

mansabdor shaxslarga nisbatan shaxsiy moliyaviy sanksiyalarni joriy etish taklif etiladi. Unga ko‘ra, agar ma’muriy organ yoki mansabdor shaxs qonuniy kuchga kirgan sud qarorini unda belgilangan muddatda uzrli sabablarsiz ijro etmasa, sud mazkur ijroni ta’minlashga bevosita mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxsning ish haqi yoki shaxsiy mablag‘lari hisobidan har bir kechiktirilgan kun uchun jarima undirish chorasini qo‘llashi shart. Jarimaning undirilishi mansabdor shaxsni sud hujjatini ijro etish majburiyatidan ozod qilmasligi qat’iy belgilanishi lozim.

Ikkinchidan, ma’muriy organlar tomonidan dalillarni qasddan yashirish yoki sud jarayonini asossiz cho‘zish harakatlariga chek qo‘yish maqsadida, MSIYUTK 67-moddasining to‘rtinchi qismidagi ”faraz qilinadi” degan noaniq tushuncha o‘rniga sud majlisini kechiktirmasdan ishni yakunlash mexanizmini kiritish zarur. Agar ma’muriy organ sud tomonidan belgilangan muddatda nizolashilayotgan qarorning asosini tashkil etuvchi hujjat va dalillarni taqdim etmasa, arizachi tomonidan ko‘rsatilgan barcha faktlar va vajlar ma’muriy organ tomonidan to‘liq tan olingan deb hisoblanishi hamda sud ishni mavjud materiallar asosida arizachi foydasiga hal qilishi lozim.

Uchinchidan, fuqarolarning huquqlariga yetkazilishi muqarrar bo‘lgan zararlarning oldini olish maqsadida, Germaniya tajribasidan kelib chiqib, milliy qonunchilikda preventiv (oldini oluvchi) dastlabki himoya choralari mustahkamlanishi kerak. Ma’muriy organning qabul qilinishi kutilayotgan qarori yoki sodir etilishi rejalashtirilayotgan harakati arizachiga qaytarib bo‘lmaydigan yirik zarar yetkazish xavfi mavjud bo‘lgan taqdirda, manfaatdor shaxs rasmiy ma’muriy hujjat chiqqunga qadar ham sudga mazkur harakatlarni vaqtincha taqiqlash to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega bo‘lishi shart.

Ma’muriy organlar qarorlari ustidan sud nazoratini amalga oshirishning protsessual jihatlarini hamda Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks normalarini qo‘llash amaliyotini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Huquqni qo‘llash amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy va yuridik shaxslarning ma’muriy sudlarda erishgan ijobiy sud qarorlari ko‘p hollarda ma’muriy organlar tomonidan oylab yoki yillab ijro etilmasdan qolmoqda. Amaldagi protsessual qonunchilikda sud qarorini ijro etmaganlik uchun faqatgina ma’muriy organning o‘ziga nisbatan umumiy tartibda sud jarimasi solish choralari nazarda tutilgan. Mazkur moliyaviy sanksiyalar davlat budjeti mablag‘lari hisobidan to‘lanishi sababli, qaror ijrosiga bevosita mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxsning shaxsiy javobgarligini ta’minlamaydi. Fransiya huquqiy tizimidagi astrent instituti tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sud qarorini bajarmayotgan mansabdor shaxsning bevosita o‘z ish haqi yoki shaxsiy mablag‘lari hisobidan har bir kechiktirilgan kun uchun uzluksiz jarima undirish tizimi ijro intizomini keskin oshiradi. Shunga ko‘ra, milliy qonunchilikka mansabdor shaxsga nisbatan har bir kechiktirilgan kun uchun bazaviy hisoblash miqdorining muayyan foizi miqdorida shaxsiy moliyaviy sanksiya qo‘llash tartibini kiritish zarurligi aniqlandi.

Amaldagi qonunchilikning 68-moddasiga binoan, qarorning qonuniyligini isbotlash majburiyati uni qabul qilgan ma’muriy organ zimmasiga yuklatilgan bo‘lsada, amaliyotda davlat idoralari sud so‘ragan hujjatlarni taqdim etishni asossiz kechiktirish yoki umuman bermaslik orqali sud jarayonini cho‘zish taktikasidan foydalanmoqda. Mavjud jarima choralari nizoning mohiyatan hal bo‘lishini tezlashtirmaydi. AQSh va ilg‘or Yevropa davlatlari ma’muriy adliyasida mavjud bo‘lgan tartibga ko‘ra, agar davlat organi o‘z ixtiyoridagi hujjatni taqdim etishdan bosh tortsa, sud da’vogarning vajlarini to‘g‘ri deb hisoblaydi va ishni yakunlaydi. Tadqiqot natijasida aniqlandiki, agar ma’muriy organ belgilangan muddatda qarorning asosini tasdiqlovchi dalillarni uzrli sabablarsiz taqdim etmasa, arizachi tomonidan ko‘rsatilgan faktlar ma’muriy organ tomonidan tan olingan deb hisoblanishi va sud ishni mavjud materiallar asosida hal qilishi to‘g‘risidagi qoidani qonunchilikka kiritish lozim.

Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning 94-moddasida nazarda tutilgan dastlabki himoya choralari faqat yuridik kuchga ega bo‘lgan, ya’ni rasman qabul qilib bo‘lingan ma’muriy hujjatlar ijrosini to‘xtatib turish bilan cheklanadi. Biroq, amaliyotda ma’muriy organlar tomonidan mulkni buzish yoki yer uchastkasini olib qo‘yish kabi qaror loyihalari tayyorlanayotgan yoki amaliy harakatlar boshlangan bosqichda fuqarolar real zararning oldini olish uchun sudga murojaat qila olmaydilar. Zarar yetkazilib bo‘linganidan keyin sudga borish esa o‘z samarasini yo‘qotadi. Germaniya ma’muriy sudlov tizimidagi vaqtincha buyruq instituti

tajribasidan kelib chiqib, milliy huquq tizimida preventiv dastlabki himoya choralarini joriy etish zarurati isbotlandi. Unga ko‘ra, agar ma’muriy organning kutilayotgan harakati arizachiga qaytarib bo‘lmaydigan yirik zarar yetkazish xavfini tug‘dirsa, manfaatdor shaxs rasmiy hujjat qabul qilinishidan oldin ham sud orqali ushbu harakatlarni vaqtincha taqiqlashni talab qilish huquqiga ega bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy-huquqiy munosabatlarda sud nazorati mexanizmlarini takomillashtirish bevosita ma'muriy protsess ishtirokchilarining huquqiy tengligini ta'minlash bilan bog'liq. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar va ishlab chiqilgan tavsiyalar milliy ma'muriy sudlov tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Mansabdor shaxslarning protsessual majburiyatlarni bajarmaganligi uchun shaxsiy moliyaviy javobgarligini belgilash, ma'muriy organlar tomonidan dalillar uzrsiz sabablarga ko'ra taqdim etilmaganda faktlarni arizachi foydasiga tan olish qoidasini kiritish hamda huquq buzilishining oldini oluvchi preventiv dastlabki himoya choralarini joriy etish ommaviy munosabatlarda muvozanatni tiklaydi. Ushbu protsessual o'zgartirishlar ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan sud nazoratining ta'sirchanligini kuchaytiradi, qonuniylikni mustahkamlaydi hamda fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi

2.O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

3. Germaniya Ma’muriy sudlov to‘g‘risidagi qonuni (Verwaltungsgerichtsordnung – VwGO) va Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonuni (VwVfG) amaliyoti.

4. Fransiyaning Ma’muriy adliya kodeksi (Code de justice administrative)